



Najotni ilmdan izlagan ayol

Murodova Shahnoza Abdurahmon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Najotni bilimdan izlagan bilim orqali ko‘plab yutuqlarga erishgan va katta maqsadlar sari qadam tashlayotgan “Dunyoni bilim va tafakkur qutqaradi” shioriga og‘ishmay amal qilayotgan yurtdoshimiz, matonatli ayol Xurshida Egamberdiyeva haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: "Ibrat akademy", sabr, matonat, qat'iyat, qobiliyat, mehnat, imtihon, qiyinchilik ilm.

Hayot-imtihon. Imtihon esa hech qachon oson bo‘lmaydi. Imtihonlar, hayotdagi barcha qiyinchilik, bular shunchaki mashqlardir. Imtihonlar insonlarni kuchli qiladi. Bu galgi maqolamizda hayotdagi imtihonlarda yanada kuchli bo‘lib borayotgan, hayotdagi qiyinchiliklarni sabr, matonat qolaversa, mehnat va izlanuvchanlik bilan yengib o‘tayotgan Xurshida Egamberdiyeva haqida so‘z yuritilgan. "Ibrat Akademy" o‘quv markazi rahbari bo‘lgan Xurshida Egamberdiyeva "Dunyoni bilim va tafakkur qutqaradi" shioriga og‘ishmay amal qiladigan ayoldir.

Xurshida opa oiladagi o‘n nafar qizlardan biri edi. Onasi Gulchehra aya qizlari, gul-u rayhonlarining ta'lim tarbiyasida kamchilik bo‘lmasligi hayotda o‘z yo‘lini topishlari uchun tinim bilmadi. Maktabda tengdoshlaridan tirishqoqligi, izlanuvchanligi bilan ajralib turgan, yoshligidan kitobga mehri tushib ulgurgan Xurshida opa: "Bugungi kunda erishgan yutuqlarimga sababchi inson bu onamdir"-deydi faxr bilan.

Najotni bilimdan izlagan bilim orqali ko‘plab yutuqlarga erishgan va katta maqsadlar sari qadam tashlayotgan qahramonimiz dastlab institut talabasi bo‘lish uchun tayyorgarliklar ko‘rdi ammo institut eshiklarini ocha olmadi. Shundan so‘ng, oila qurib endi



baxtli hayot kechira boshlaganida, turmush oʻrtogʻi oqqon kasaliga chalinib vafot etadi. Turmush oʻrtogʻidan boshpana va yoʻqsillik meros boʻlib qolgan edi. Gardaniga roʻzgʻor tebratish, 3 nafar voyaga yetmagan farzandlari uchun ham ota ham ona maʼsuliyatini olgan Xurshida opa uchun sinovli kunlar boshlangandi."Bu qiyinchiliklarni hozir eslasam, yuragim orqaga tortadi. Sababi, bolalarni qanday boqaman deb oʻylardim"- deydi qahramonimiz. Mavsumiy ishlardan topilgan mablagʻ evaziga roʻzgʻor tebratishdi. Xurshida opaning soʻzlariga koʻra, onalariga yordamlashish uchun murgʻak qorakoʻz farzandlar dalaga chiqishar, qoʻllari ishib, qavarar onalariga yigʻlab:"Bu holatdan qanday chiqamiz" degan savollariga "Bizni bilim qutqaradi" deb yupatgan ekanlar.

Shunday paytlarda Xurshida opa bu sinovlar abadiy emasligiga ishondi. Bugun qiyin, ertaga yanada qiyinroq, indinga esa hammasi yaxshi boʻladi. Tun vaqt oʻtib oʻz oʻrnini kunga boʻshatib beradi. Osmonni qoplagan qora bulutlar ham quyosh bilan oʻrin almashadi. Qahramonimiz hayot yoʻllarida ham xuddi shunday" Quyoshli kunlar "boshlandi. Xurshida Egamberdiyeva "Yoshlar ishlari agentligi" tomonidan tashkil etilgan "Ibrat farzandlari" loyihasi orqali bir yilda 2ta ingliz va koreys tillarini oʻrganadi. "Ibrat farzandlari hayotimizga moʻjizaday kirib keldi"- deydi Xurshida opa. Sabr, mehnat izlanish va albatta ilm bu oilaning hayotini mayoq misoli yoritdi desak yanglishmagan boʻlamiz. Insoniyatga berilgan imkoniyatlarning cheg-chegarasi yoʻq. Goʻzal hayot oʻzidan-oʻzi kelmaydi. U oʻqib, oʻrganish, tinimsiz mehnat evaziga keladi. Aytishadiku, inson 1% qobiliyati, 99% mehnati bilan muvaffaqiyatga erishadi.

Bugungi kunda bu oilaning hayotning ravon yoʻllariga tushib olishida sababchi narsa bu-qahramonimizdagi qatʼiyat va izlanuvchanlikdir. Hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan "Ibrat akademy" oʻquv markazida 300 dan ortiq yoshlar til oʻrganishmoqda. Til bilgan kishi dunyo kezadi.Yangi doʻstlar orttiradi. Markaz oʻquvchilarining olimpiadalardagi natijalari, qoʻlga kiritgan sertifikatlari bu markazda oʻqish va oʻqitish qizgʻin kechayotganidan dalolatdir.



Hayot - velosiped kabidir. Muvozanatni saqlash uchun tinimsiz mehnat qilish kerak. Qahramonimizning ham tinimsiz mehnat va izlanish, qat'iyatlilik orqali ekilgan niholi o'zining ilk mevalarini berdi. Prezidentimizning "8-mart xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofatlash to'g'risida"gi farmoniga binoan Xurshida Egamberdiyeva "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Taqdim etilgan medal Xurshida opani o'ziga ishonchini yanada mustahkamladi. Yanada ko'p mehnat qilishi uchun turtki bo'ldi. Qahramonimiz ishonch bilan kattadan-katta maqsadlar sari qadam tashlamoqda. Bu maqolada biz yurtdoshimiz Xurshida Egamberdiyevaning qorong'ulikni qay tarzda ziyoga ulagani haqida so'z yuritdik. Bilim va ta'limning haqiqiy najot yo'li ekanligiga yana bir bor guvoh bo'ldingiz degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilk qadam o'quv dasturi T-2022-y.
2. Qodirova F., Toshpo'latova. Sh., Kayumova N., A'zamova N. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" Toshkent-2019 y.
3. M.B.Berdiyeva "O'qituvchi kreativ kompetensiyasining o'quvchilar kreativ fikrlashiga ta'siri" 2023-yil
4. M.B.Berdiyeva "Yangi O'zbekistonda ma'rifatli shaxs tarbiyasi"-2022-yil
5. N. T. Tosheva darslik 2023-yil